


Memorandumda nazarda tutilgan hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Navoiy bo'limi tarkibida beshta bo'linma muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Navoiy bo'limi va Birlashgan Millatlarning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasidagi tashkiloti (FAO)ning O'zbekistondagi vakolatxonasi o'rtasida Navro'z bayrami arafasida hamkorlik memorandumining imzolanishi ularning tegishli sohalarda innovasion loyihalarni hamkorlikda amalga oshirishning yangi istiqbollarini ochdi.



Hujjatda O'zbekiston Respublikasida innovasion ishlanmalarni tijoratlashtirish va rag'batlantirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni hosil yetishga ko'maklashish maqsadida ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va uzoq muddatli, samarali va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Umumiy maqsadlariga erishish uchun FAO tashkiloti turli o'tsimon, bo'ta, daraxt va boshqa o'simliklarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, shuningdek, hayvonlar, qushlar va baliqlarni mahalliyashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish va bu yo'nalishda innovasion texnologiyalarni joriy etishda bo'limni qo'llab quvvatlaydi. Bo'lim esa o'z navbatida FAO tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar, jumladan, Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari, shuningdek, xorijiy ilmiy-tadqiqot institutlarining ilmiy kadrlar salohiyatini jalb etgan holda ilmiy ko'mak berib boradi.

Ayni vaqtda koronavirus tufayli yuzaga kelgan O'zbekistonda va dunyo miqyosida hozirgi sanitariya-epidemiologik vaziyat tufayli masofadan turib muzokaralar olib borilmoqda. Xususan, ushbu bosqichda yaylov yerlarining degradasiya uchrashi va cho'llanishini oldini olish, cho'l va yaylov o'simliklari urug'chiligini rivojlantirish, shuningdek, qishloq joylarda xotin-qizlar bandligini ta'minlash maqsadida hunarmandchilikning yo'qolib borayotgan turlarini tiklash

va dorivor o'simliklar yetishtirishga qaratilgan qo'shma loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari muhokama qilinmoqda. Bundan tashqari, bog'dorchilik, jumladan, uzumchilik sohasida hamkorlik imkoniyatlari ko'rib chiqilmoqda.

Birgalikda olib boriladigan konsul'tasiyalar, konferensiyalar, seminarlar va munozaralar ham o'zaro hamkorlik mexanizmlari sifatida belgilandi.

Quvondiq NURBOEV

**Navoiy bo'limi xalqaro aloqalar va
tijoratlashtirish masalalari bo'yicha rais o'rinbosari.**